

**O'QUVCHILARNING KASB-HUNAR EGALLASHGA BO'LGAN
QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGNING O'RNI****Begmurova Mavluda Djaminovna**

Qashqadaryo viloyati Koson tumani MMTBga
qarashli 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda maktab psixologining o'rni, vazifalari va psixologik usul va metodlari haqida yoritib berilgan. Bundan tashqari o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, fikrlarni va his tuyg'ularini adekvat o'rnatish va kasbiy bilim va qiziqishlarini oshirishda bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatlarini shakllantirish haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qiziqish, iqtidor, zamonaviy kasblar, kasbiy bilim, yosh hususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, umuminsoniy qadryatlar, his-tuyg'ular, agressiv xulq atvor, qat'iyat, irodaviy sifatlar.

Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning eng asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, hamda kelajak uchun mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va



amaliy bilimlar darajasini baholash bugungi kundagi maktab psixologlaridan yuksak mahoratni, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Zamonaviy kasblarning mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi kasb-hunar tanlash yoki egallash ham so'nggi yillarda amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamlı serqirra tushunchadir.

Kasb-hunarga yo'naltirish-bu shaxslarga kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradigan hal qiluvchi jarayon. Bu turli xil kasb-hunar yo'llarini o'rganayotganda shaxslarga ma'lumot, qo'llab-quvvatlash va ko'rsatmalar berishni o'z ichiga oladi. Yo'l-yo'riq jarayonining samarali bo'lishini ta'minlash uchun kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish juda muhimdir. Maktab psixologlarining kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan turli usullar, erishish mumkin bo'lgan natijalar va kasb-hunarga yo'naltirishning martaba rivojlanishidagi ahamiyati juda katta. To'g'ri kasb tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-hunarni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat



unumini oshiradi. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Mehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda. Kasbga yo'naltirish – bu har bir individumning o'ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo'naltirilgandir. Kasbga yo'naltirishning mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirish tadbirlari inson tomonidan o'z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi. Kasbga yo'naltirish quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish. Kasbiy axborot – ma'lum bir kasbni egallash hohishi bo'lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o'sish imkoniyatlariga mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, targ'ibot qilish chora-tadbirlaridir. Kasb-hunar yo'naltirish bo'yicha maslahat odamlarga o'z maqsadlari,



kuchli tomonlari va muammolarini aniqlashga va martaba maqsadlariga erishish rejasini tuzishga yordam beradi. Kasbiy tayyorgarlik-bu kasbga yo'naltirish ishlarining yana bir muhim usuli. Ushbu usul shaxslarga tanlangan kasblarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni berishni o'z ichiga oladi. Kasbiy tayyorgarlik shogirdlik, amaliyot yoki boshqa turdagi ish o'rgatish dasturlari shaklida bo'lishi mumkin. Va nihoyat, ishga joylashish-bu kasbiy rahbarlik ishining yana bir usuli bo'lib, u shaxslarni ularning ko'nikmalari va qiziqishlariga mos keladigan ish imkoniyatlari bilan bog'lashni o'z ichiga oladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining natijalari sezilarli. Shaxslar samarali kasbiy yo'l-yo'riq olganda, ular qiziqishlari, ko'nikmalari va qadriyatlariga mos keladigan ma'lumotli martaba qarorlarini qabul qilish ehtimoli ko'proq. Bu, o'z navbatida, ishdan qoniqish, mahsuldorlik va ularning kareralarida muvaffaqiyatga olib keladi. Bundan tashqari, samarali kasbiy rahbarlik ishsizlik darajasini pasaytiradi, bu esa shaxslar tanlangan kasblarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo'lgan psixofiziologik me'yoriy talablar (sarlash) asosida shaxsni har tomonlama o'rganish tizimidir. Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvofaqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Xulosa o'rnida maktabda psixologlarning kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda o'quvchilarga to'g'ri qaror qabul qilishda yordam berish uchun juda muhimdir. Samarali kasbiy kasb-hunar bir necha usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi, jumladan, martaba baholash, maslahat berish, kasbiy tayyorgarlik va ishga joylashtirish. Kasbiy tanlov natijalari ishdan qoniqish, mahsuldorlik va o'quvchilarning kelajagida muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish uchun kasb-hunar bo'yicha maslahatchilar, o'qituvchilar va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, yo'l-yo'riq jarayonining qulayligi va samaradorligini oshirish uchun kasb-hunarga yo'naltirishda



texnologiyadan foydalanishni rag'batlantirish kerak. Vanihoyat, kasbiy rahbarlik ishlari orqali mahorat yetishmovchiligini bartaraf etish va ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish bo'yicha harakatlarni kuchaytirish kerak. O'quvchilarning bilim olishga va o'zlari qiziqgan kasb yoki hunarni egallashga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini oshirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish haqida gap yutilganda asosan gap shaxsning ijtimoiy va axloqiy taraqqiyoti va xarakteristikasi haqida boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraxmonov F.R., Abdurahomonova Z.E. Kasb psixologiyasi. -T.: 2018. 143-b. 2. Sharipov Sh.S., Davlatov K.N., Salohuddinova G. Kasbga yo'naltirishning ilmiypedagogik asoslari. -T.: 2007. 97-b.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. -T.: 2011. 10-b
4. Abdullaev A. M. (2019). Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish// Science and Education.
5. Экономика труда: учебник / Под.ред. П.Э. Шендлера, Ю.П. Кокина. -М.: Юрист, 2019.
6. Valiev SM Formation and development of the competitiveness of young professionals in the labor market//Modern Economics and Law. 2021.